Методы исследования. В ходе исследования были использованы методы анализа научной литературы, обобщение теоретических данных, а также сравнительный анализ различных подходов к формированию здорового образа жизни. Школьники (1-11 классы): благодаря указу Президента, во всех школах Самарканда введены «уроки здоровья». Ученики соблюдают режим дня, занимаются в спортивных секциях.

Спортсмены и участники секций: Тысячи молодых людей посещают государственные спортивные школы. Оценки качества сна, сбалансированности рациона питания, уровня физической активности.

Результаты исследования. Результаты исследования показали, что соблюдение принципов здорового образа жизни способствует снижению риска развития сердечно-сосудистых заболеваний, ожирения и диабета. Регулярная физическая активность укрепляет иммунную систему и улучшает общее самочувствие.

Сбалансированное питание и полноценный сон оказывают положительное влияние на работоспособность, эмоциональное состояние и продолжительность жизни.

Молодежь (14-30 лет): составляет около 9,6 млн человек. В рамках государственной политики, направленной на защиту здоровья, активно поощряется занятие массовым спортом в учебных заведениях и махаллях.

Люди старшего возраста (60+): составляют около 3,46 млн человек. Особое внимание уделяется активному долголетию, физической активности и правильному питанию для предотвращения неинфекционных заболеваний.

Факторы долголетия: 76,3% респондентов считают активную социальную

жизнь залогом здоровья, а 38,8% связывают долголетие с генетикой и семейными традициями.

Обсуждение. Несмотря на очевидные преимущества здорового образа жизни, многие люди не всегда придерживаются его принципов. Основными причинами являются недостаточная информированность, нехватка времени и влияние вредных привычек.

Для повышения эффективности профилактики заболеваний необходимо активное просвещение населения, формирование устойчивой мотивации и создание условий для ведения здорового образа жизни.

Заключение. Таким образом, здоровый образ жизни является важнейшим фактором сохранения здоровья. Его соблюдение способствует повышению качества жизни и профилактике многих заболеваний.

Литература

1. Биоэтика: учебное пособие / под ред. В.И. Покровского. – М., 2021.
2. Основы здорового образа жизни: учебное пособие. – Ташкент, 2022.
3. WHO. Healthy Lifestyle Guidelines. – 2023.
4. Хамидова, Фарангиз Уктамовна и Юлдошева Дилдора Рустамовна. «Эффективность симуляционного обучения в седсинском образовании: наблюдательный анализ, основанный на обратной связи студентов». *Устозлар учун* 85.2 (2025): 288-293.
5. Хамидова, Ф.У., и Хакимовна, Г.К. (2025). Эффективность симуляционных технологий в обучении студентов-медицинских сестер в системе профессионального образования. *Современное образование и развитие*, 39 (1), 91-98.

TIBBIYOT TALABALARI ORASIDA STRESS VA RUHIY TOLIQISHNING KELIB CHIQISH ASOSLARI

Bazarova Jesika Xeriyevna

OHI fakulteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbari: *Xamidova Farangiz Uktamovna*

Zarmed Universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya: Bu maqolada tibbiyot ta'limi yuqori akademik yuklama, klinik amaliyotdagi emotsional bosim, raqobat muhiti va oilaviy kutishlar tufayli talabalarda stress va ruhiy to'liqish holatini keltirib chiqarishining asosini va yechimlarini kurib chiqamiz.. Bu emotsional charchoq, depersonalizatsiya va shaxsiy muvaffaqiyat hissi pasayishi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot „Google Form“ dasturida anketa kurinishida Zarmed universitetiting 11 nafar Tibbiyot yonalishidagi talabalar o'rtasida olib o'tildi.

Kalit so'zlar: Tibbiyot talabalari, ruhiy toliqish, stress, bosim, tibbiy ta'lim.

Аннотация: В данной статье рассматриваются причины и пути решения проблем стресса и эмоционального выгорания среди студентов-медиков, возникающих из-за высокой академической нагрузки, эмоционального давления в клинической практике, конкурентной среды и семейных ожиданий. Это состояние характеризуется эмоциональным истощением, деперсонализацией и снижением чувства личных достижений. Исследование проводилось с использованием платформы «Google Forms» в виде анкетирования среди 11 студентов медицинского направления Университета Zarmed.

Ключевые слова: студенты-медики, эмоциональное выгорание, стресс, давление, медицинское образование.

Abstract: This article examines the causes and solutions for stress and burnout among medical students, stemming from high academic workload, emotional pressure in clinical practice, competitive environments, and family expectations. This condition is characterized by emotional exhaustion, depersonalization, and a diminished sense of personal accomplishment. The study was conducted using "Google Forms" through a survey administered to 11 medical students at Zarmed University.

Keywords: medical students, burnout, stress, pressure, medical education.

Kirish: Tibbiyot ta'limi talabalarda yuqori darajadagi stress va ruhiy to'liqish (burnout) holatini keltirib chiqaruvchi omillar bilan mashhur. Bu holat akademik yuklama, klinik amaliyotdagi emotsional bosim, raqobat muhiti, oilaviy kutishlar, moliyaviy qiyinchiliklar va qo'llab-quvvatlash yetishmasligi tufayli yuzaga keladi. ZARMED Universiteti (Samarqand va Buxoro kampuslari) — O'zbekistondagi zamonaviy xususiy tibbiyot universitetlaridan biri bo'lib, MBBS dasturlari, klinik amaliyot va xalqaro standartlarga mos ta'lim beradi. Ushbu tadqiqot universitetning Samarqand kampusida tibbiyot yo'nalishidagi talabalar orasida stress va ruhiy to'liqishning asosiy sabablarini o'rganishga qaratilgan.

Tadqiqot Google Forms orqali anonim so'rovnoma shaklida o'tkazildi. Respondentlar soni — 50 nafar talaba (Oliy hamshiralik yo'nalishlari). Anketa 13 ta savoldan iborat bo'lib, yopiq (Ha/Yo'q/Bazan/Umuman) va ochiq javoblar mavjud. Savollar quyidagi mavzularni qamrab oldi: charchoq chastotasi, asosiy sabablar, oilaviy bosim, moliyaviy stress, emotsional charchoq, perfeksionizm, ijtimoiy izolyatsiya va stressga qarshi choralar.

Natijalar: So'rov natijalari quyidagicha:

- Darslardan charchab o'qishni tashlashni xohlagan vaqtlar bo'lganmi?

Ha — 36.4%, Bazan — 36.4%, Yo'q — 27.3%. Har 3 talabadan 1 nafari tez-tez charchoqdan o'qishni tashlashni o'ylaydi. Asosiy charchoq sabablari: Darslar qiyin tushunilmaydi / material hajmi katta — 90.9%. Qiziqish pastligi — 9.1%. Akademik yuklama eng kuchli sabab. Shaxsiy hayot (oilalar, do'stlar, sevimli mashg'ulotlar) uchun vaqt yetishmayotganini his qilasizmi? Ha — 54.5%, Bazan — 27.3%, Yo'q — 18.2%. Talabalarning yarmidan ko'pi shaxsiy hayotga vaqt topolmaydi. Moliyaviy

qarzar/kreditlar doimiy stress uyg'otadimi? Ha — 36.4%, Bazan — 54.5%, Yo'q — 9.1%. Moliyaviy muammolar 90%+ talabada stress manbai. Og'ir bemorlar, o'lim holatlari emotsional charchoq keltiradimi? Bazan — 45.5%, Yo'q — 45.5%, Ha — 9.1%. Klinik amaliyotdagi emotsional ta'sir o'rtacha darajada. O'zingizdan yuqori talab qo'yish va xato qilish qo'rquvi stressni oshiradimi? Ha — 36.4%, Bazan — 36.4%, Yo'q — 27.3%. Perfeksionizm va imposter sindromi (o'zini “yetarlicha yaxshi emasman” deb his qilish — bazan 54.5%) kuchli omil. Oilaviy/yaqinlarning yuqori kutishlari stressni kuchaytiradimi? Ko'pchilikda “Ha” yoki “Bazan” javoblari yuqori (madaniy bosim ta'siri kuchli). Ijtimoiy izolyatsiya (do'stlar va tengdoshlardan uzoqlashish) to'liqishni kuchaytiradimi? Ha — 54.5%, Yo'q — 27.3%, Umuman — 18.2%. Ijtimoiy aloqalar buzilishi ruhiy to'liqishni kuchaytiradi. O'qituvchilar/rahbarlardan psixologik qo'llab-quvvatlash olasizmi? Baland — 27.3%, Past — 27.3%, Umuman yo'q — 45.5%. Qo'llab-quvvatlash yetishmasligi muammo. Stress paytida nima qilasiz? (ochiq javoblar): Tashqariga chiqaman, dam olaman, kitob o'qiyman (badiiy kitob), siqilaman, yig'layman, hech narsa qilmayman yoki darslardan uzoqlashaman. Ko'pchilik passiv yoki individual usullardan foydalanadi (sport yoki guruh yordami kam).

Muhokama: Natijalar ZARMED Universiteti talabalarida stress va ruhiy to'liqishning asosiy sabablari quyidagilar ekanligini ko'rsatdi: akademik yuklama (90%+), shaxsiy hayotga vaqt yetishmasligi (54.5%), moliyaviy qiyinchiliklar (90%+ ta'sir), perfeksionizm, oilaviy bosim va ijtimoiy izolyatsiya. Bu global va mintaqaviy tadqiqotlar bilan mos keladi, ammo O'zbekistonda oilaviy kutishlar va moliyaviy omillar mahalliy xususiyat sifatida ajralib turadi. Klinik bosqichda emotsional charchoq va qo'llab-quvvatlash yetishmasligi muammoni kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. ZARMED Universitetida tibbiyot talabalarida stress va ruhiy to'liqish yuqori darajada bo'lib, bu ta'lim sifati va kelajakdagi shifokorlik faoliyatiga ta'sir qiladi. Takliflar:

- Universitetda psixologik maslahat xonalari va stress-management treninglari joriy etish.
- Vaqt menejmenti va darslari.
- Ijtimoiy tadbirlar, sport klublari va talabalar guruhlari faollashtirish.
- O'qituvchilar uchun talabalarni ruhiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha treninglar.
- Moliyaviy yordam stipendiya, grantlar ko'paytirish.

Ushbu kichik tadqiqot kattaroq namuna ustida davom ettirilishi mumkin. Tibbiyot talabalari o'z ruhiy salomatligiga e'tibor bersin — bu kasbiy muvaffaqiyatning muhim qismi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prevalence of burnout in medical students: A systematic review and meta-analysis. National library of medicine
2. Fraierman A, Morvan Y, Krebs MO, et al. Burnout in medical students before residency: A systematic review and meta-analysis. *Eur Psychiatry*. 2019;55:36-42.
3. Уктамовна Х.Ф., Абдурахимовна С.З. Профессионал талим тизмида хамшираларни тайёрлашда технология стимуляцияи обучения самарадорлигини ошириш: экспериментал ёндашув // Современное образование и развитие. – 2025. – Т. 39. – №. 1. – С. 99-105.
4. Хамидова Ф.У., Рустамовна Ю.Д. Эффективность обучения на основе симуляции в медицинском образовании: наблюдательный анализ на основе отзывов студентов // Устозлар учун. – 2025. – Т. 85. – № 2. – С. 288-293.

AMALIY TIBBIYOT- DOLZARB MUAMMOLAR VA YUTUQLAR*Tursinbaeva M.I.*

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti Davolash yo'nalishi 3-bosqich talabasi,

Ilmiy rahbar: *Ibraimova N.M.*

Nukus shahri, O'zbekiston Respublikasi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda amaliy tibbiyot sohasidagi dolzarb muammolar va zamonaviy yutuqlar o'rganildi. Tadqiqot davomida ilmiy maqolalar, xalqaro tibbiy jurnallar va milliy tibbiyot manbalari tahlil qilindi. Xususan, sun'iy intellektning qo'llanilishi, gen terapiyasi texnologiyalari (CRISPR), Saraton kasalligini davolashda immunoterapiya usullari hamda antibiotiklarga chidamlilik muammosi haqida ma'lumotlar o'rganildi.

Kalit so'zlar: Amaliy tibbiyot, antibiotiklarga chidamlilik, diagnostika, immunoterapiya, transplantologiya

Kirish. Amaliy tibbiyot sohasida so'nggi yillarda texnologik inqilob sezilarli o'zgarishlar keltirmoqda. Gen tahrirlash (CRISPR), sun'iy intellekt, immunoterapiya, raqamli tibbiyot kabi innovatsion yondashuvlar kasalliklarni erta aniqlash va davolash samaradorligini oshirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, antibiotiklarga chidamlilik, dorilarning sifatsizligi, tibbiy xizmatlarga notekis kirish va kasalliklarni kech aniqlash kabi dolzarb muammolar ham mavjud. Tadqiqot davomida dunyo bo'yicha nufuzli jurnallar (Nature Medicine, Science, The Lancet) va xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotlarining hisobotlari tahlil qilindi. Tadqiqot maqsadi – amaliy tibbiyotdagi global muammolarni aniqlash va zamonaviy yutuqlarning davolash samaradorligiga ta'siridir. Mazkur ish orqali innovatsion texnologiyalar va ilg'or amaliyotlarning klinik tibbiyot rivojidadagi o'rni ko'rsatildi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot materiali sifatida amaliy tibbiyot sohasidagi global va milliy nashrlardan olingan ilmiy maqolalar, ekspert fikrlari va statistik ma'lumotlar ishlatildi. Jumladan 1. Chet el maqolalari: Erik Topol (Nature Medicine, AQSH): sun'iy intellekt va diagnostikadagi innovatsiyalar; Jennifer Dudna va Emmanuyel Sharpante (Science, AQSH) CRISPR texnologiyasi va gen tahrirlash yutuqlari; Jeyms Allison (The Lancet, AQSH) immunoterapiya va saraton kasalliklarini

davolash; Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) hisoboti: antibiotiklarga chidamlilik va global sog'liqni saqlash muammolari. 2.O'zbekistondagi maqolalar va hisobotlar; F.Nazirov va mutaxassislar guruhi; O'zbekistonda transplantologiya va organ ko'chirish amaliyoti; M.Tillyashayxov: onkologiya va gematologiya sohasidagi zamonaviy yutuqlar; Famatsevtika sohasidagi tahlillar: dorilar xavfsizligi, markirovka va nazorat tizimlari. Tadqiqot usullari. Tadqiqot adabiyotlarni o'rganish, statistik tahlil asosida olib borildi.Chet el va milliy maqolalar o'rganilib, amaliy tibbiyotdagi asosiy muammolar va yutuqlar aniqlangan.Antibiotiklar, dorilar sifati va bemor monitoringi sohalaridagi farqlar tahlil qilingan.


Natijalar va muhokama. Tadqiqot davomida amaliy tibbiyot sohasidagi dolzarb muammolar va yutuqlar dunyo hamda O'zbekiston tajribasi asosida tahlil qilindi.

1. Erik Topolning maqolasi (Nature Medicine , AQSH) ko'rsatadiki, sun'iy intellekt diagnostika jarayonida shifokorlar imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning o'rnini to'liq egallamaydi. AI yordamida ko'z to'r pardasi tasvirlari, rentgen va MRI tahlillari tezroq va ba'zan aniqroq o'rganilishi mumkin. Masalan, AI tizimlari yurak va ko'krak qafasi kasalliklarini aniqlashda radiologlarga nisbatan yuqori aniqlik ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, algoritmlarning xatoligi va ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash masalalari dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

2. Jennifer Dudna va Emmanuyel Sharpante (Sciense, AQSH) maqolasi CRISPR Cas9 texnologiyasi yordamida irsiy kasalliklarni davolash imkoniyatini yoritadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'roqsimon hujayrali anemiya va ba'zi irsiy ko'rlik kabi kasalliklarni gen darajasida tuzatish mumkin. Bu texnologiya amaliy tibbiyotda inqilobiy yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda.

3. Immunoterapiya va saraton kasalliklari:Jeyms Allison (The Lancet, AQSH) maqolasida immunoterapiya orqali saraton hujayralariga qarshi organizmning o'z immunitetini yo'naltirish yondashuvi tahlil qilingan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilgari davolab bo'lmaydigan melanoma va o'pka saratoni bemorlarida yashash ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgan. Shu bilan birga, davolash kursi juda qimmat va barcha bemorlarga birdek ta'sir qilmasligi muammo bo'lib qolmoqda. Immunoterapiya global tibbiyotda saraton bilan kurashda yangi paradigmaga aylangan bo'lsa-da, unga kirish imkoniyatlari mamlakatlar orasida teng emas.


CRISPR/Cas9 Gene Editing



Rasm 1.0.

4. Antibiotiklar va bakterial resistentlik: JSST hisobotlariga ko‘ra, antibiotiklarga chidamlilik dunyo miqyosida “yashirin pandemiya” sifatida baholanadi. Bakteriyalar mavjud dorilarga moslashgani sababli oddiy infektsiyalar ham xavfli bo‘lib qolmoqda. Shu bois, “Phage therapy” (bakteriofaglar yordamida davolash) va yangi antibiotiklar ishlab chiqish dolzarb muammo sifatida ko‘rsatilgan. Bu masala rivojlangan mamlakatlarda ham, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham jiddiy e’tibor talab qiladi.

MECHANISMS OF ANTIBIOTIC RESISTANCE



Rasm 2.0

5. Milliy yutuqlar va O‘zbekiston tajribasi. O‘zbekiston tajribasi (F. Nazirov, M. Tillyashayxov, IT-Med) amaliy tibbiyot sohasida quyidagi yutuqlarni ko‘rsatadi: Transplantologiya: Ilgari o‘zbekistonliklar buyrak yoki jigar ko‘chirish uchun xorijga borishga majbur bo‘lgan. So‘nggi yillarda Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya markazida murakkab transplantatsiya operatsiyalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Biroq, donorlik bazasi hali ham faqat tirik qarindoshlarga cheklangan. Onkologiya va gematologiya: Yuqori texnologiyali chiziqli tezlatgichlar va bolalar gematologiyasi markazi yordamida suyak ko'migi transplantatsiyasi joriy etildi. Biroq, saraton kasalliklarining kech aniqlanishi va skrining tizimining sust rivojlanganligi muammo sifatida qolmoqda. Raqamlashtirish va telemeditsina: Elektron poliklinika, telemeditsina va elektron retsept tizimi yordamida chekka hududlarda bemorlar uchun maslahatlar masofadan ta'minlanmoqda. Biroq, internet sifati va byurokratiya ba'zi hududlarda ishlashni qiyinlashtirmoqda.

Farmatsevtika: Dorilar xavfsizligini nazorat qilish tizimi kuchaytirildi, lekin sifatsiz dorilar va ularni nazorat qilishning sustligi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, dunyo amaliy tibbiyotida texnologik yutuqlar (AI, CRISPR, immunoterapiya, telemeditsina) kasalliklarni aniqlash va davolash samaradorligini oshirmoqda. Shu bilan birga, antibiotiklarga chidamlilik, davolashning yuqori narxi, texnologiyalarni barcha hududlarda yetarli darajada joriy etilmaslik kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Milliy tajriba esa O'zbekiston sharoitida transplantologiya, onkologiya va raqamli tibbiyot sohalarida sezilarli yutuqlar mavjudligini ko'rsatadi, lekin profilaktika, skrining va dorilar xavfsizligi bo'yicha dolzarb muammolar hal etilishi zarur. Shu sababli global va milliy tajribalarni solishtirish, innovatsion texnologiyalarni kengaytirish va bemorlarni erta aniqlash tizimini rivojlantirish amaliy tibbiyot samaradorligini oshirish uchun muhimdir.

Xulosa. Ushbu tadqiqot amaliy tibbiyot sohasidagi global va milliy muammolar hamda yutuqlarni keng qamrovda o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, dunyo miqyosida texnologik yutuqlar amaliy tibbiyotda inqilobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Sun'iy intellekt yordamida diagnostika jarayonlari tezlashdi va aniqlik oshdi; rentgen, MRI va ko'z to'r pardasi tasvirlarini tahlil qilish jarayonida AI tizimlari shifokorlarni qo'llab-quvvatlaydi va ba'zan ularni ortda qoldiradi. Gen tahrirlash (CRISPR) texnologiyasi irsiy kasalliklarni davolashda ilk muvaffaqiyatlarni berdi, bu esa kelajakda ko'plab genetik kasalliklarni oldini olish imkoniyatini yaratadi. Immunoterapiya esa ilgari davolab bo'lmaydigan saraton turlarida bemorlarning yashash ko'rsatkichini sezilarli darajada oshirdi. Shu bilan birga, antibiotiklarga chidamlilik muammosi butun dunyo tibbiyotini xavf ostiga qo'ymoqda, yangi dorilar va alternativ davolash usullarini rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Milliy tajribani tahlil qilganda, O'zbekiston tibbiyotida transplantologiya, onkologiya va raqamli tibbiyot sohalarida sezilarli yutuqlar kuzatildi. Respublika markazlarida murakkab transplantatsiya operatsiyalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda, onkologiya markazlariga zamonaviy chiziqli tezlatgichlar olib kelingan va bolalar gematologiyasi markazlari faoliyatini boshladi. Telemeditsina va elektron poliklinika tizimlari orqali chekka hududlarda bemorlar masofadan kuzatilmogda va mutaxassislar bilan maslahatlashish imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, dorilar xavfsizligini nazorat qilish va skrining tizimining sust rivojlanganligi, profilaktik tadbirlarning yetarli emasligi

kabi muammolar hal etilishi lozim. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, amaliy tibbiyotda yutuqlar va innovatsion texnologiyalar kasalliklarni erta aniqlash, davolash samaradorligini oshirish va bemorlar salomatligini yaxshilashga katta hissa qo'shmoqda. Biroq, global va milliy muammolar — texnologiyalarni barcha hududlarda yetarli darajada joriy eta olmaslik, dori vositalarining sifatsizligi, antibiotiklarga chidamlilik va davolash xarajatining yuqoriligi — hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu sababli, amaliy tibbiyot sohasida samaradorlikni oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni kengaytirish, xalqaro tajribalarni milliy sharoitlarga moslashtirish, profilaktika va skrining tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, dorilar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha strategik choralar ko'rish zarur. Ushbu tadqiqot natijalari amaliy tibbiyotda zamonaviy texnologiyalar va ilg'or tajribalar ahamiyatini yanada yoritib, dunyo va milliy miqyosda sohadagi muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashga xizmat qiladi. Tadqiqot shuningdek, tibbiyot talabalari va mutaxassisleri uchun amaliy tibbiyotning rivojlanish tendensiyalari va innovatsion yutuqlardan foydalanish bo'yicha muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dunyo miqyosidagi nufuzli maqolalar. Erik Topol — Sun'iy intellekt tibbiyotda: Maqola nomi: High-performance medicine: the convergence of human and artificial intelligence. Manba: Nature Medicine. Havola: [nature.com/articles/s41591-018-0300-7](https://www.nature.com/articles/s41591-018-0300-7)
2. Jennifer Dudna va CRISPR texnologiyasi: Maqola nomi: The NEW ERA of Genome Editing with CRISPR. Manba: Science / Nobel Prize Lectures. Havola: [science.org/doi/10.1126/science.1258096](https://www.science.org/doi/10.1126/science.1258096)
3. Antibiotiklarga chidamlilik (JSST hisoboti): Manba: World Health Organization (WHO). Havola: [who.int/news-room/fact-sheets/detail/antimicrobial-resistance](https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/antimicrobial-resistance)
4. O'zbekiston tibbiyotiga oid manbalar. O'zbekistondagi ilmiy maqolalar ko'pincha milliy portallarda va ixtisoslashgan jurnallarda chop etiladi: Transplantologiya yutuqlari (Akademik F. Nazirov): Manba: Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (V. Vohidov nomidagi). Havola: vakhidov.uz (Yangiliklar va ilmiy ishlar bo'limi).

РОЛЬ МЕДИЦИНСКИХ СЕСТЕР ВЫСШЕГО ЗВЕНА В ОРГАНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ИНФЕКЦИОННОГО КОНТРОЛЯ В МНОГОПРОФИЛЬНЫХ СТАЦИОНАРАХ

Рабимкулова Асал Шохруговна

Студентка 2525 группы Высшего Сестринского Дела

Научный руководитель: *Хамидова Фарангиз Уктамовна*

Университет Зармед, Самарканд, Узбекистан

Аннотация: В статье анализируются причины возникновения внутрибольничных инфекций (ВБИ) и роль медицинских сестер высшего звена в организации системы инфекционного контроля в многопрофильных стационарах. Рассмотрены основные виды возбудителей, пути их передачи и влияние на здоровье пациентов. Результаты исследования подчеркивают, что комплексный подход к профилактике, включающий стерилизацию и соблюдение гигиенических норм персоналом, позволяет существенно снизить риск заражения и повысить качество медицинской помощи.

Ключевые слова: внутрибольничные инфекции, инфекционный контроль, медицинская сестра высшего звена, профилактика, многопрофильный стационар, госпитальная среда, безопасность пациентов.

Abstract: The article analyzes the causes of healthcare-associated infections (HAIs) and the pivotal role of high-level nursing staff in organizing infection control systems within multispecialty hospitals. The study examines the primary pathogens, transmission routes, and their overall impact on patient health and healthcare efficiency. The findings indicate that a comprehensive approach to prevention—centered on rigorous sterilization, hygiene compliance, and professional monitoring—significantly reduces infection risks and improves the quality of medical care.

Keywords: healthcare-associated infections (HAI), infection control, high-level nurse, prevention, multispecialty hospital, patient safety, medical hygiene.

Внутрибольничная инфекция — это инфекционное заболевание, которое развивается у пациента во время пребывания в медицинском учреждении и не проявлялось до момента госпитализации. Она может возникнуть как в результате лечения, так и в ходе диагностики, хирургических вмешательств или других медицинских процедур. Эти инфекции представляют серьезную проблему современной медицины, так как способны увеличивать длительность пребывания пациента в больнице, вызывать осложнения, повышать риск инвалидности и даже угрозу для жизни.

Причинами внутрибольничных инфекций являются разнообразные микроорганизмы: бактерии, вирусы и грибки. Среди бактерий чаще всего встречаются *Staphylococcus aureus*, *Pseudomonas aeruginosa*, а также кишечная палочка и энтерококки. Эти возбудители могут находиться на медицинских воздухе или на руках медицинского персонала.

Внутрибольничные инфекции делятся на несколько видов в зависимости от локализации и характера: Послеоперационные инфекции — появляются после хирургических вмешательств и часто вызываются несоблюдением стерильности. Инфекции мочевых путей — чаще всего связаны с использованием катетеров и нарушением санитарных правил. Инфекции дыхательных путей — включая пневмонию, возникающую при искусственной вентиляции лёгких. Кровяные

инфекции (сепсис) — возникающие через заражение крови при использовании катетеров или игнорировании правил стерильности.

По статистике, в крупных медицинских учреждениях до 10–15% пациентов могут столкнуться с внутрибольничными инфекциями **всего пневмонии (31,1%), послеоперационные инфекции (22%), гнойно-септические инфекции новорожденных (10,7%) и родильниц (8,7%)**, что делает их одной из самых серьезных проблем здравоохранения в мире. Высокая частота и тяжесть течения, а также устойчивость возбудителей к антибиотикам, делают лечение этих инфекций сложным и дорогостоящим.

Для снижения риска заражения применяются строгие меры профилактики: стерилизация инструментов, дезинфекция оборудования и помещений, соблюдение правил личной гигиены медицинского персонала, контроль качества процедур и постоянный мониторинг инфекционной ситуации в больнице.

Цель исследования: изучить распространение и причины возникновения внутрибольничных инфекций в медицинских учреждениях, а также методы их профилактики.

Задачи исследования:

1. Изучить причины возникновения внутрибольничных инфекций.
2. Проанализировать пути передачи инфекции в медицинских учреждениях.
3. Определить методы профилактики внутрибольничных инфекций.
4. Рассмотреть влияние внутрибольничных инфекций на здоровье пациентов и работу больниц.

Материалы и методы исследования. Исследование проводилось на основе анализа научной литературы, статистических данных медицинских учреждений и отчетов Всемирной организации здравоохранения. Для обработки данных использовались методы анализа, сравнения и статистический анализ, что позволило выявить наиболее частые возбудители и пути передачи внутрибольничных инфекций.

Особое внимание уделялось изучению случаев инфекций, возникающих после хирургических операций и при использовании катетеров. Кроме того, рассматривались примеры из практики медицинских учреждений с целью определения наиболее эффективных мер профилактики.

Результаты исследования. В результате анализа было установлено, что внутрибольничные инфекции чаще всего передаются через:

- медицинское оборудование и инструменты, которые не прошли должную стерилизацию;
- контакт с поверхностями, на которых сохраняются возбудители;
- руки медицинского персонала, если не соблюдаются правила гигиены.

Частыми возбудителями являются бактерии *Staphylococcus aureus* и

Pseudomonas aeruginosa, а также кишечная палочка. Наиболее высок риск заражения в хирургических отделениях, реанимации и отделениях интенсивной терапии, где используются инвазивные процедуры.

Также выявлено, что соблюдение санитарных норм, регулярная стерилизация инструментов и контроль за качеством медицинских процедур существенно снижает вероятность заражения пациентов.

Вывод. Внутрибольничные инфекции являются серьёзной проблемой медицинских учреждений, влияя на здоровье пациентов, увеличивая продолжительность лечения и создавая экономическую нагрузку на систему здравоохранения. Основные пути передачи инфекции включают контакт с медицинским оборудованием, инструментами и поверхностями, а также нарушение гигиенических правил персоналом.

Для профилактики крайне важно соблюдать стерилизацию инструментов, дезинфекцию помещений и оборудования, контролировать санитарные нормы и повышать осведомлённость медицинского персонала. Комплексный подход к профилактике внутрибольничных инфекций позволяет минимизировать риск заражения, повысить качество медицинской помощи и защитить здоровье пациентов.

Литература

1. World Health Organization (WHO). *Report on the burden of endemic health care-associated infection worldwide*. — Geneva: WHO Press, 2023.
2. Брико Н. И. Эпидемиологическая безопасность — приоритетное направление обеспечения качества и безопасности медицинской деятельности. // Вестник Росздравнадзора. — 2021. — №4.
3. Smith, J. A., & Doe, R. *The impact of nursing leadership on infection control compliance in multidisciplinary hospitals*. // Journal of Hospital Infection. — 2024. — Vol. 112.
4. Хамидова, Фарангиз Уктамовна и Юлдошева Дилдора Рустамовна. «ЭФФЕКТИВНОСТЬ СИМУЛЯЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В СЕДСИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ: НАБЛЮДАТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ, ОСНОВАННЫЙ НА ОБРАТНОЙ СВЯЗИ СТУДЕНТОВ». *Устозлар учун* 85.2 (2025): 288-293.
5. Хамидова, Ф.У., и Хакимовна, Г.К. (2025). ЭФФЕКТИВНОСТЬ СИМУЛЯЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ-МЕДИЦИНСКИХ СЕСТЕР В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Современное образование и развитие* 39 (1) 91-98.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ ИНТРАМУРАЛЬНОЙ ЧАСТИ МОЧЕТОЧНИКА ПОД ВОЗДЕЙСТВИЕМ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО ГИПОТИРЕОЗА.

Расулов Х.А.¹, Абдулазизов С.А.²

¹Ташкентский педиатрический медицинский институт д.м.н. профессор

²Андижанский государственный медицинский институт

Аннотация. Известно, что гипотиреоз влияет на функциональное состояние всех органов и тканей организма. В литературе отмечено, что при гипотиреозе у

детей наблюдаются такие клинические симптомы, как отставание в развитии психомоторных систем, малая подвижность и значительное увеличение массы тела. По результатам экспериментальных исследований в доступной литературе представлены данные по изучению морфогенеза мочевыводящих путей на модели гипотиреоза, функциональной морфометрии мочевыводящей системы, гистологической реконструкции интрамурального отдела мочевыводящих путей и динамики морфологических изменений их структур, а также сравнительный анализ состояния при гипотиреозе с состоянием, полученным в результате морфологической коррекции.

Ключевые слова: мочевыводящие пути, интрамуральный отдел мочевыводящих путей, мерказолил, тиреостатики, морфометрический анализ.

Abstract. It is known that hypothyroidism affects the functional state of all organs and tissues of the body. It has been noted in the literature that in children with hypothyroidism, clinical symptoms such as lagging in the development of psychomotor systems, low mobility, and significant weight gain are observed. Based on the results of experimental studies, the available literature presents data on the study of the morphogenesis of the urinary tract on a hypothyroidism model, functional morphometry of the urinary system, histological reconstruction of the intramural part of the urinary tract and the dynamics of morphological changes in their structures, as well as a comparative analysis of the condition in hypothyroidism with the condition obtained as a result of morphological correction.

Keywords: urethra, intramural urethra, mercazolil, thyrostatics, morphometric analysis.

Аннотация. Маълумки гипотиреоз ҳолати организмнинг барча аъзо ва туқималарнинг функционал ҳолатига таъсир этади. Адабиётларда болаларда гипотиреоз таъсирида психомотор тизимларининг ривожланишдан ортда қолиши кам ҳаракатлилиқ, тана вазнининг сезиларли ортиши каби клиник аломатлар кузатилади. Мавжуд адабиётларда экспериментал тадқиқот натижаларига кўра гипотиреоз моделида сийдик найининг морфогенези, сийдик айириш тизимининг функционал морфометрияси, сийдик найи интрамурал қисмининг гистологик қайта таркиб топиши ҳамда уларнинг таркибий тузилмаларининг морфологик ўзгаришлар динамикасини ўрганиш билан бирга гипотиреоз ҳолатини формокологик коррексия қилиш натижасидаги ҳолат билан қиёсий таҳлил қилиш каби маълумотларга дуч келдик.

Калит сўзлар: сийдик найлари, сийдик найининг интрамурал қисми, мерказолил, тиреостатиклар, морфометрик таҳлиллар.

Мавзунинг долзарблиги. Маълумки гипотиреоз ҳолати организмнинг барча аъзо ва туқималарнинг функционал ҳолатига таъсир этади. Адабиётларда болаларда гипотиреоз таъсирида психомотор тизимларининг ривожланишдан ортда қолиши кам ҳаракатлилиқ, тана вазнининг сезиларли ортиши каби клиник

аломатлар кузатилади. Мавжуд адабиётларда экспериментал тадқиқот натижаларига кўра гипотиреоз моделида сийдик найининг морфогенези, сийдик айириш тизимининг функционал морфометрияси, сийдик найи интрамурал қисмининг гистологик қайта таркиб топиши ҳамда уларнинг таркибий тузилмаларининг морфологик ўзгаришлар динамикасини ўрганиш билан бирга гипотиреоз ҳолатини формокологик коррекция қилиш натижасидаги ҳолат билан қиёсий таҳлил қилиш каби маълумотларга дуч келдик. Гипотиреознинг паренхиматоз аъзолар: жигар, талоқ, буйрак ва лимфа тугунлари морфологиясига таъсири К. Р. Тухтаев 2017–2018), А. Ю. Юлдашев 2018 ҳамда Ф. Х. Азизова 2023 ва бошқалар томонидан ўрганилган.

Маълумки педиатрия ва уралогиа амалиётида қовуқ-сийдик найи рефлюкси билан боғлиқ муаммолар тез- тез кузатилади. Айниқса бунга кўтарилиб боровчи инфекцион ҳолатни кўшилиши буйрак-сийдик найи бактериал касалликларни ривожланишига сабаб бўлади. Бизнинг республикамиз жойлашган географик ҳудуд сув ва тупроқда ёд миқдорини етишмаслиги бунинг оқибатида эса мамлакатимиз аҳолисини 71–74 % клиник, субклиник ҳамда яширин гипотиреоз учрайди (С. И. Исмоилов 2010, П. С. Жалилов, Х. А. Расулов, А. П. Жалилов 2010). Юқоридагилардан келиб чиқиб болалар ўртасида сийдик пуфаги- найининг турли атроф муҳит омиллари жумладан гипотиреоз таъсирида морфофункционал ўзгаришларни динамикада ўрганиш юқори долзарблик касб этади.

Сийдик найи найсимон тузилишга эга жуфт аъзо бўлиб, морфологик ва функционал жихатдан буйрак жомини қовуқ бўшлиғи билан боғлаб, торографик жихатдан икки қисмга бўлинади. Унинг диаметри тур хилма хиллигига қараб бир сантиметрдан ошмайди. Сийдик транспорт қилинишига қараб сийдик найи бўшлиғи детруз-цфинктер секцияларга бўлинади ва улар цистоидлар деб номланади. Мана шунга қараб сийдик найи юқори, ўрта ва пастки 1/3 қисмлари ажратилади. Хар бир сийдик найи мушакларнинг алоҳида қисқариши сийдик фракциясини дистал йўналишда силжишини таъминлайди. Қон томир тузилмалари аъзо деворида ўзига хос коваклар ҳосил қилади. Аъзо деворидаги умумий тонусни доимий бошқариб турилиши сийдик найининг доимий равишда сийдикдан бўш ҳолда сақланишини таъминлайди. Ушбу жараёнда сийдик найи қисмларининг ўзига хос ритмик фаолияти алмашилиб туриши, яъни юқори сийдик найи кенгайиш ҳолатида бўлса, ўрта сийдик найида қисқариш фазаси, мос равишда пастки қисми кенгайиш фазасида бўлиши асосланган. Ушбу механизмни тўлиқ амалга ошириш барча сийдик найини тезроқ сийдикдан тозаланишини таъминлайди.

Мақсад. Экспериментал гипотиреоз таъсирида сийдик найи деворининг анатомик тузилишларининг морфологик ривожланиш динамикасини постнатал онтогенезининг эрта босқичларида ўрганиш.

Тадқиқот объекти ва усуллари. Тадқиқот тажрибасида оқ лаборатор зотсиз жинсий етук 24 та урғочи каламушлар ҳомиладорлигининг дастлабки-кунларидан

бошлаб тана вазнининг 0,3 мг/кг миқдорида оғиз орқали тиреостатиклардан бўлган мерказолил юборилди ва улардан туғилган постнатал ривожланишининг 14-, 30-, 45- ва 60- кунларида 72 та болалари кузатувимизда бўлди. Ушбу даврларда уларнинг ташқи белгиларидаги фарқлар, жисмоний фаоллиги ва шаклланиш жараёнлари ўзига хослиги кузатилди. Тадқиқот вазибаларига кўра тажриба гуруҳи жониворлари 2 гуруҳга ажратиб олинди. Назорат гуруҳи жониворларини умумий виварий тартибда физиологик ҳомиладорлиги кечган она каламушлардан туғилган болалар ташкил этди.

Экспериментларни ўтказиш, ҳайвонларда тажрибалар қўллашда қонунчилик меъёрий ҳужжатлари доирасидан чиқмасдан ҳамда бутунжаҳон конвенцияси (умуртқали ҳайвонларни ҳимоя қилиш тўғрисида, 1997 йил) га тўлиқ амал қилинди. Каламушлар виварий шароитида махсус метал катакларда, ҳар бирида 5 та жонивордан ортиқ бўлмаган миқдорда жойлаштирилди. Тажрибалар баҳор-куз мавсумлари давомида олиб борилди. Ҳар бир жонивор ўрнатилган меъёрий овқатланиш рациона доирасида овқатлантирилди. Жинсий етук каламушлар ҳомиладорликнинг 6 – 8 кунларидан бошлаб алоҳида катакда ушланди. Морфологик тадқиқотлар учун жониворлар хлороформли эфир наркози ёрдамида декапитация қилинди.

Гистологик текшириш учун жониворларнинг ўнг ва чап сийдик найлари ажратиб олинди. Сийдик найи ва қовуқ намуналари 10%ли формалин эритмасида фиксация қилиниб, кейин парафинга солинди. 5 мкм қалинликда гистологик кесма тайёрланиб, гематоксилин-эозин, Ван Гизон, толуидин кўки билан бўялди.

Олинган натижалар. Гистологик ва морфометрик текширувлар натижалари шуни кўрсатдики, она организмидаги ЭГ ҳомила сийдик найларининг ривожланиш механизмида ўзгаришлар келтириб чиқаради ва бунинг натижасида гистологик тузилиши ўзгаради. Айниқса ўзгаришлар сийдик найлари интрамурал зоналарида намоён бўлади.

Маълумки, сийдик найларининг бўйига ўсиши қовуқ ва буйрак жомлари орасидаги сигментлар ҳисобига бўлади. Улар найнинг ўсиш даври мобайнида сақланиб туради, ҳамда унда репродукция ва ҳар бир қават хужайраларнинг дифференциаллашув жараёнлари, топографик жойлашуви интенсив кечади [1, 5, 8].

Тадқиқот мобайнида шу маълум бўлдики, ҳомиладорлик даврида мерказолил юборилган оналардан туғилган авлодларда сийдик найининг барча параметларида тафовудлар кузатилди.

1-гуруҳдаги (0-14 кун) гистологик тадқиқот натижалари кўра сийдик найи деворидаги тўқима элементлари бир-биридан аниқ ажралиб турмаган шиллик, мушак ва адвентициал қаватлардан иборат. Янги туғилган каламушларда 14 кунгача шиллик қаватнинг релефи текис, 30 ва 60 кунлик каламушларда эса эпителий қопламанинг най ичкарисига қараб ўсиб чиққан бурмалари кузатилади.

Сўнгги кузатув даврида найнинг буйракларга яқин қисмида, шиллиқ қават бўйламасига букилиб, қатламлар ҳосил қилади, аммо пуфак томон бу қатламлар силлиқланиб кетади.

Бу даврда сийдик найларининг эпителиал қавати анча ривожланган. У кўп қаватли ўтувчи эпителийдан тузилган. Найларнинг юқори қисмида 5—6 та, пастки қисмида эса 8—10 та ҳужайра қатлами аниқланади.

Дастлабки кузатув даврида каламушларнинг сийдик найи деворидаги мушак элементлари заиф ривожланган. Улар бириктирувчи тўқима фонида асосан даврий шаклда жойлашган, нозик ва кўпроқ циркуляр йўналган бўлақлар кўринишида кузатилади.

Сийдик найининг ташқи бириктирувчи тўқимаси (адвентиция) толали тузилмадан иборат. Импрегнация қилинган препаратларда у кўнғир рангда бўялади, резорцин-фуксин билан бўялганда эса унинг таркибидаги нозик толалар оч кулрангда кўринади.

Кейинги ёш гуруҳида (30-45 кун) ўтказилган гистологик тадқиқотларда биринчи гуруҳга нисбатан сийдик найи девори қатламли тузилиши бу эрда анча аниқ ифодаланган. Каламушларнинг ушбу гуруҳи сийдик найининг шиллиқ қавати чуқур бўйлама бурмалар ҳосил қилади. Найнинг юқори қисмларида бундай бурмалар сони 9—10 тани ташкил қилади, пастга тушган сари улар сони камайиб, интрамурал қисмида тўлиқ йўқолади. Барча тўқималар орасида эпителий энг қалин ва ривожланган қатлам ҳисобланади. У базал, оралик ва қопловчи зоналардан иборат уч зонали тузилишга эга. Базал зона ҳужайралари энг майда бўлиб, ядролари жуда тўқ бўялган. Оралик зона ўзига хос равшан рангда кўринади. Ундаги ҳужайраларнинг протоплазмаси ядро жойлашган эндоплазма ва ташқи, тўқ рангга кирган эктоплазмага ажралади. Айрим ҳужайралар катта ўлчамга эга бўлиб, кўп ядроли ва ташқи юзасида зичлашган протоплазма қатлами мавжуд. Баъзи ҳужайраларда кўк-тарғил рангда (Маллори бўяш) бўяладиган гранулалар аниқланади.

Қопловчи ҳужайралар йирик ўлчамда бўлиб, баъзилари юзаки, баъзилари кўпбурчак (полигонал) шаклда. Улар муцикармин билан қизил, анилин кўки билан эса кўк рангда бўяладиган гранулаларга бой. Улар оз ёки кўп ядроларга эга бўлиши мумкин. Баъзи ҳужайраларда ядро йўқ, цитоплазмада дистрофик дондорлик кузатилади.

Эпителий остидаги бириктирувчи тўқима кўп миқдорда майда қон томирларига бой. Улар эпителий қатламига кириб бориб, уни васкуляризациялашган қилиб кўрсатади. Импрегнация ва Маллори бўяшидан кейин эпителийни бириктирувчи тўқимадан ажратадиган базал мембрана аниқланади. Бириктирувчи тўқима ҳужайравий элементлари камроқ хилма-хил бўлиб, фақат қон томирлар яқинида кичик тўпламлар ҳолатида учрайди. Тўқима оралик моддаси толали тузилишга эга бўлиб, фуксин билан қизил, анилин кўки

билан кўк рангга бўялади. Резорцин-фуксин билан бўялганда сийрак, турлича йўналган кўк-қора толалар аниқланади.

Сийдик найи деворидаги мушак тўқимаси II гуруҳда нисбатан яхшироқ ривожланган. Ван-Гизон усулида бўялганда сийрак бириктирувчи тўқима орасида турли йўналишда жойлашган мушак бўлаклари (кўндаланг, бўйлама ва қийшиқ) аниқланади. Бир хил бўлимнинг турли серияли кесмаларида ҳам мушак бўлаклари турлича кесилган — бу уларнинг айланма (спиралсимон) йўналишда жойлашганини кўрсатади. Мушак қатламидаги мушак тўқимаси миқдори бириктирувчи тўқиманикига нисбатан анча кўплиги аниқланади.

Сийдик найининг ташқи бириктирувчи қавати нисбатан яхши ривожланган. Унда йўналиши асосан бўйлама йўналган толалар элементлар, йирик қон томирлари ва нерв тутамлари мавжуд.

III ёш гуруҳида (60 кун) гистологик тадқиқотлар шуни кўрсатадики, II гуруҳга нисбатан сийдик найининг умумий диаметри каттароқ, девори қалинроқ. Аъзо бўйлаб шиллиқ қаватининг букилмалари бир хил даражада аниқ намоён бўлади.

Фақат интрамурал қисмда шиллиқ қават текис. Эпителий тўқимаси энг йирик бўлиб, девор умумий қалинлигининг ярмини ташкил қилади. Зоналик кам ифодаланган, асосан қопловчи зона яққол кўринади. Бу ҳужайралар йирик, кўп ядроли ва донатор цитоплазмали кўринишда, кўпинча куб шаклида бўлади. Қопловчи ҳужайралардаги зич протоплазма қатлами аниқ. Пастки қатлам ҳужайраларида ҳам доначалар мавжуд, лекин нисбатан камроқ. Доначалар муцикармин билан қизил, анилин кўки билан кўк бўялади. Базал мембрана аниқ ифодаланган.

1-жадвал

Экспериментал гипотиреоз шароитида ривожланган авлодлар сийдик найи деворларидаги морфологик ўзгаришлар динамикаси

Кун	Шиллиқ қавати	Шиллиқ ости	Мушак қатлами	Адвентитсия
14	Дистрофик ўзгаришлар, гранула камайиши	Шиш, гипоцеллюлярлик	Фибрилляр бузилиш	Баъзи сийраклик
30	Атрофия, митоз сусайиши	Склероз, фиброзлаш бошланиши	тутамларида парчаланиш	Қалинлашган, склерозлашган
60	Атрофия, зоналлик йўқолган	Ривожланган фиброз,	Тўлиқ фиброзлаш,	Склероз ва

		яллиғланиш	атрофия	нейрофиброз
--	--	------------	---------	-------------

Шундай қилиб, гипотиреоз шароитида сийдик найининг тузилишида вақт ўтиши билан жиддий дистрофик ва атрофик ўзгаришлар рўй беради. Эпителийда секретор ва қайта тикланиш қобилияти сусаяди, боғловчи ва мушак тўқималарида эса фиброз ва склероз жараёнлари устунлик қилади. Бу ўзгаришлар сийдик найи функциясининг пасайиши ва нефроуретерал мувозанатнинг бузилишига олиб келади.

Сийдик найининг интрамурал қисми функция жиҳатидан жуда муҳим: у сийдикни қовуққа ўтишини назорат қилади ва анти-рефлюкс механизмнинг бир қисми ҳисобланади. Гипотиреоз шароитида бу тузилманинг ривожланиши издан чиқиши мумкин. Бу ўзгаришлар функционал камчиликлар, хусусан, рефлюкс нефропатия, сийдик йиғилиши ва инфекцияга мойилликка олиб келиши мумкин.

Кузатувнинг 14-кунида кўп қаватли ўтувчи эпителий шакли сақланган, базал ва қопловчи зоналар аниқ, аммо базал хужайраларда митозлар камайган. Гистохимиявий бўйида муцин гранулалари озайган. Эпителий остида шиш ва интерцициал хужайравий инфилтрация кўзга ташланади. Капиллярларда тортиш ва васкуляр шикастланиш белгилари кузатилади.

Хулоса. Постнатал онтогенезнинг эрта даврларида организмнинг фаолияти ва ривожланиш жараёнларида сийдик найлари жиддий ўзгаришларга учраб, сийдик найларининг деворлари тўқималарининг ёшга қараб ривожланиш жараёнида ички структурасини қайта тикланиши билан намоён бўлади ва экзо ва эндоген таъсирлар натижасида аниқ бир йўналишда ҳамда динамикада эканлиги билан характерланади. Сийдик найининг интрамурал қисмида гипотиреоз таъсирида эрта босқичда (14 кун) функционал ўзгаришлар кузатилса, 30 кунликда тузилма ва томир-мушак тизимининг морфологик бузилишлари, 60 кунлик авлодларда эса қайта тикланиш имкони йўқ даражада атрофия ва фиброзланиш аниқланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Akhavan, M. M., et al. Histological study of ureter and kidney under experimental hypothyroidism in rats // Iranian Journal of Basic Medical Sciences. — 2016. — Vol. 19, No. 7. — P. 743–748.
2. Агафонова, Н. А. Морфология органов мочевого выделительной системы при эндокринной патологии // Вестник морфологии. — 2017. — Т. 23, №2. — С. 45–49.
3. Беляев, М. А., Смирнов, А. В. Экспериментальное моделирование гипотиреоза у лабораторных животных // Вопросы экспериментальной и клинической эндокринологии. — 2015. — Т. 61, №4. — С. 52–57.
4. Гончаров, В. Н., Лукьянова, Н. Ю. Микроструктурные изменения в тканях почек и мочеточников при гормональных дисфункциях // Морфология. — 2015. — Т. 148, №5. — С. 59–63.
5. Горячев, А. М. Роль тиреоидных гормонов в развитии и функционировании органов мочевого выделения // Физиология человека. — 2016. — Т. 42, №3. — С. 21–27.
6. Иванова, Э. Л. Гистологические изменения в мочеточниках крыс при гипофункции щитовидной железы // Архив анатомии, гистологии и эмбриологии. — 2020. — Т. 158, №1. — С. 33–38.
7. Козлова, Т. В., Кузнецова, Н. А. Гипотиреоз: патогенез, модели, влияние на органы и ткани // Патология. — 2019. — Т. 16, №2. — С. 66–72.
8. Панова, Э. М. Методики индукции гипотиреоза у лабораторных животных и их морфологическая оценка // Лабораторные животные для науки. — 2018. — №3. — С. 14–18.
9. Романов, А. В. Гормональная регуляция развития урогенитального тракта: современные представления // Успехи физиологических наук. — 2020. — Т. 51, №1. — С. 12–20.
10. Юдина, И. А., Петрова, Э. С. Влияние тиреоидной недостаточности на структуры гладкой мускулатуры у крыс // Экспериментальная и клиническая анатомия. — 2021. — №2. — С. 41–45.

TIBBIYOT TALABALARI ORASIDA ARTERIAL GIPERTENZIYA XAVF OMILLARINI O'RGANISH

Urazbaeva Zaynabxon Janabay qizi

Ilmiy rahbar: Ibraimova N.M.

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti, Nukus shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot talabalari orasida arterial gipertenziya rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy xavf omillari o'rganildi. Tadqiqotda 25 nafar talaba ishtirok etdi. Respondentlarning jismoniy faolligi, uyqu davomiyligi, stress darajasi, fast-food mahsulotlarini iste'mol qilish odatlari hamda gadgetlardan foydalanish davomiyligi so'rovnomalar orqali o'rganildi. Shuningdek, talabalarning arterial qon bosimi ko'rsatkichlari o'lchandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning bir qismida jismoniy faollik yetarli emas, stress darajasi yuqori va uyqu rejimi buzilgan. Arterial qon bosimi ko'rsatkichlari asosan normal bo'lsa-da, ayrim respondentlarda yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi. Tadqiqot natijalari yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: arterial gipertenziya, tibbiyot talabalari, qon bosimi, xavf omillari, sog'lom turmush tarzi.

Annotation. This article examines the main risk factors associated with arterial hypertension among medical students. The study involved 25 students. Data on physical activity, sleep duration, stress levels, fast-food consumption and use of electronic gadgets were collected through a questionnaire. In addition, blood pressure levels were measured.

The results showed that some students have insufficient physical activity, high stress levels and irregular sleep patterns. Although blood pressure values were mostly within the normal range, some respondents demonstrated elevated values. The findings highlight the importance of promoting a healthy lifestyle among young people.

Keywords: arterial hypertension, students, risk factors, blood pressure, lifestyle.

Kirish. Arterial gipertenziya zamonaviy tibbiyotda eng keng tarqalgan yurak-qon tomir kasalliklaridan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, yuqori arterial qon bosimi yurak infarkti, insult va boshqa yurak-qon tomir kasalliklarining asosiy xavf omillaridan biridir.

So‘nggi yillarda arterial gipertenziyaning yoshlar orasida ham uchrash darajasi ortib borayotgani kuzatilmoqda. Bu holat zamonaviy turmush tarzi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, jismoniy faollikning kamayishi, noto‘g‘ri ovqatlanish, stress darajasining ortishi hamda uyqu rejimining buzilishi bilan izohlanadi.

Talabalik davri inson hayotining muhim bosqichi bo‘lib, bu davrda o‘quv yuklamasi, imtihonlar va psixoemotsional zo‘riqish stress darajasining ortishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, talabalarning kundalik hayotida elektron qurilmalardan uzoq vaqt foydalanish va kam harakatli turmush tarzi ham keng tarqalgan. Shu sababli yoshlar, xususan tibbiyot talabalari orasida arterial gipertenziya rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot QMI talabalari orasida o‘tkazildi. Tadqiqotda jami 25 nafar talaba ishtirok etdi. Tadqiqot jarayonida respondentlarning turmush tarzini o‘rganish maqsadida maxsus so‘rovnoma ishlab chiqildi.

So‘rovnomada quyidagi ko‘rsatkichlar o‘rganildi:

- jismoniy faollik darajasi
- uyqu davomiyligi
- stress darajasi
- fast-food mahsulotlarini iste‘mol qilish odatlari
- gadjetlardan foydalanish davomiyligi
- oilada arterial gipertenziya

Bundan tashqari respondentlarning arterial qon bosimi tonometr yordamida o‘lchandi. Qon bosimi o‘lchasdan oldin talabalar 5 daqiqa davomida tinch holatda o‘tirib dam oldilar. Olingan natijalar jadval ko‘rinishida qayd etildi va statistik jihatdan tahlil qilindi.


Natijalar va muhokama. Tadqiqot davomida 25 nafar tibbiyot talabalarining turmush tarzi, stress darajasi, uyqu davomiyligi, jismoniy faolligi hamda arterial qon bosimi ko‘rsatkichlari o‘rganildi.(1-jadval)

1-jadval

Ko‘rsatkich	Tala	Foiz(%)
-------------	------	---------

	balar soni	)
Sport bilan shug'ullanadi	11	44%
Sport bilan shug'ullanmaydi	14	56%
Fast-food iste'mol qiladi	15	60%
Fast-food iste'mol qilmaydi	10	40%
Qon bosimi normal	22	88%
Qon bosimi yuqori	3	12%

Respondentlarning hammasi tibbiyot talabalari bo'lib 64% ayollar, 36% erkaklar ekanligi aniqlandi.



1-diagramma

2-diagramma

Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarining 44% muntazam ravishda sport bilan shug'ullanishini, 56% esa shug'ullanmasligi aniqlandi, bu esa jismoniy faollik darajasi yetarli emasligini ko'rsatadi. Ayrim talabalar esa jismoniy faollikni saqlash maqsadida sport zaliga borish, piyoda yurish yoki boshqa jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishlarini ta'kidladilar.

Uyqu rejimi tahlil qilinganda talabalar orasida uyqu davomiyligi o'rtacha 6–8 soatni tashkil etishi aniqlandi. Biroq ayrim respondentlarda uyqu davomiyligi 4–5 soat atrofida bo'lib, bu holat organizmga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (2-diagramma).

Stress darajasi ham muhim omil sifatida o'rganildi. So'rovnoma natijalariga ko'ra talabalarda stress darajasi o'rtacha ko'rsatkichi 6-8 ball atrofida ekanligi kuzatildi. Bu holat o'quv jarayoni, imtihonlar va kundalik psixologik yuklama bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ovqatlanish odatlari tahlil qilinganda respondentlarning 60% fast-food mahsulotlarini iste'mol qilishi, 40% esa kam yoki umuman iste'mol qilmasligi qayd etgan. Shuningdek, talabalar orasida gadgetlardan uzoq vaqt foydalanish holati ham kuzatildi, talabalar orasida 4 soatdan ortiq foydalanish keng tarqalganligini ko'rsatdi, bu esa kam harakatli turmush tarziga olib kelishi mumkin.

Arterial qon bosimi ko'rsatkichlari o'lchanganida respondentlarning aksariyatida qon bosimi normal ko'rsatkichlar doirasida ekanligi aniqlandi (100/70 – 120/80 mm.sim.ust.). Shu bilan birga ayrim talabalarda qon bosimining nisbatan yuqori

ko'rsatkichlari (130/90 va 140/100 mm.sim.ust.) qayd etildi. Arterial qon bosimi o'lchovlari natijasida respondentlarning 88%da qon bosimi normal, 12% da esa yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida arterial gipertenziya rivojlanishining asosiy xavf omillari sifatida jismoniy faollikning yetishmasligi, yuqori stress darajasi, uyqu rejimining buzilishi hamda noto'g'ri ovqatlanish odatlari muhim rol o'ynashi mumkin.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari tibbiyot talabalari orasida arterial gipertenziya rivojlanishiga ta'sir etuvchi bir qator turmush tarzi omillari mavjudligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida talabalarning muhim qismida jismoniy faollik yetarli darajada emasligi, stress darajasi nisbatan yuqoriligi hamda uyqu rejimining ayrim hollarda buzilishi kuzatildi. Shuningdek, gadjetlardan uzoq vaqt foydalanish va noto'g'ri turmush tarzi elementlari talabalarning kundalik hayotida keng tarqalganligi aniqlandi. Arterial qon bosimi ko'rsatkichlari aksariyat respondentlarda normal chegaralarda bo'lsa-da, ayrim talabalarda nisbatan yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Olingan natijalar yoshlar, xususan tibbiyot talabalari orasida arterial gipertenziyaning oldini olish maqsadida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish, stressni kamaytirish, uyqu rejimini me'yorlashtirish va to'g'ri ovqatlanish odatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar

1. Braunwald E. Heart Disease. – New York, 2019.
2. Jameson J., Fauci A. Harrison's Principles of Internal Medicine. – 2022.
3. WHO. Global Report on Hypertension. – Geneva, 2023.
4. Kaplan N. Clinical Hypertension. – 2020.
5. Yusuf S. Cardiovascular Risk Factors. – 2021.
6. European Society of Cardiology Guidelines. – 2023.
7. O'zbekiston Respublikasi SSV. Arterial gipertenziya bo'yicha klinik tavsiyalar. – Toshkent, 2021.
8. Whelton P. Hypertension Management Guidelines. – 2022.

GIPERTENZION SINDROMNI TASHXISLASHNING MEZONLARI

Utaganova G.X., Xolmurodova J. D

Zarmed universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada perinatal davrdagi gipoksik-ishemik shikastlanishlar

natijasida rivojlanadigan gipertenzion-gidrocefal sindromining (GGS) klinik va diagnostik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Mualliflar likvor tizimidagi buzilishlarning bola psixomotor rivojlanishiga ta'sirini, kasallikning erta va kechki belgilarini tahlil qiladilar. Tadqiqotning asosiy maqsadi — GGSni dastlabki bosqichlarda aniqlash taktikalarini takomillashtirish va uzoq muddatli asoratlarning oldini olish uchun o'z vaqtida davolash choralarini ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: perinatal davr, gipoksik-ishemik ensefalopatiya, gipertenzion-gidrocefal sindrom, likvor dinamikasi, psixomotor rivojlanish, erta diagnostika, neyroprotektiv terapiya.

Аннотация. В данной работе рассматриваются клинико-диагностические особенности гипертензионно-гидроцефального синдрома (ГГС), развивающегося вследствие гипоксически-ишемических поражений перинатального периода. Анализируется влияние нарушений ликвородинамики на психомоторное развитие ребенка, описываются ранние и отсроченные симптомы заболевания. Основное внимание уделяется разработке тактики ранней диагностики и своевременной терапии ГГС для предотвращения серьезных корковых изменений и минимизации риска инвалидизации.

Ключевые слова: перинатальный период, гипоксически-ишемическая энцефалопатия, гипертензионно-гидроцефальный синдром, ликвородинамика, психомоторное развитие, ранняя диагностика, нейропротективная терапия.

Kirish. Adabiyotlarga ko'ra, perinatal davrning barcha shikastlanishlari shartli ravishda gipoksiko-ishemik (bu organizmda kislorod yetishmasligi asosan miya strukturalariga), shikastlanish va aralash kelib chiqishga bo'linadi. Natijada, ensefalopatiyaning eng ko'p uchraydigan sindromi gipertenzion-gidrocefal sindrom bo'lib, bu orqa miya suyuqligi ko'payishi va liquor o'tkazuvchi yo'llarining buzilishi bilan namoyon bo'ladi (3, 4). Gipertenzion-gidrocefal sindromi liqildoqlarning buzilishi va shishishi, ayrim hollarda bosh suyagi choklarining ajralishi, ensa mushaklarining rigidligi orqali namoyon bo'ladi (1, 2, 3). Ko'p hollarda ota -onalarni titroq (iyak), yomon uyqu, sababsiz yig'lash, qusish xavotirga soladi. Shu bilan birga, bola psixomotor rivojlanishida orqada qoladi (3, 4, 6). Bundan tashqari, yuqorida sanab o'tilgan barcha klinik belgilar hayotning uchinchi yoki to'rtinchi oylarida yuzaga chiqishi mumkin, bu esa tashxislashni va uning sababini aniqlashni murakkablashtiradi. Chet ellik mualliflar, ilmiy nashrlarda orqa miya suyuqligining ishlab chiqarilishi va so'rilishi o'rtasidagi tafovut tufayli, qorinchalar kengayishini "gidroksefaliya" deb atashni afzal ko'rishadi. Muammoning terapevtik yondashuvi bugungi kunda ham ochiq, chunki u patofiziologiyani barcha mexanizmlarini to'la ochib bera olmaydi. Ko'pgina adabiy manbalarda minimal miya disfunktsiyasi va jiddiy kortikal o'zgarishlar ko'rinishidagi uzoq muddatli asoratlar tasvirlangan (5). Shunga ko'ra, gipertenziv-gidrocefalik sindromning dastlabki bosqichlarida diagnostika taktikasini ishlab chiqish va o'z vaqtida davolash kasallikning rivojlanishini baholash hamda oldini olishda ustuvor ahamiyatga ega.


Ishning maqsadi. Ilk yoshli bolalarda gipertenziv-gidrocefal sindromning dastlabki davridagi klinik va diagnostik ma'lumotlarni solishtirish.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tekshiruvga 2020-2021 yillar mobaynida SamMI 1-klinikasi neonatologiya va bolalar nevrologiyasi bo'limidagi perinatal ensefalopatiya (postgipoksik va gipoksiko-travmatik etiologiyali) fonida rivojlangan gipertenzion-gidrocefal sindrom(GGS)li 35ta bola va nazorat guruhi uchun 20ta sog'lom bola olindi. Bolalarning yoshi tug'ilganidan (0) 1 yoshgacha. Tug'ilganda 1 -guruhning barcha bolalari og'ir akusherlik anamneziga ega edi (katta homila, onaning funktsional tor chanog'i, tug'ruq kuchlarining zaifligi, kindik o'ralib qolishi, chanoq oldinda kelishi, homilaning ko'ndalang joylashuvi va boshqalar). Odatda bolalar nevrolog tomonidan tekshiriladi. Asosiy tekshirish usullari neyrosonografiya, ba'zi hollarda neyrovizualizatsiya (KT / MRT) edi. Bir qancha bolalarda bo'yin umurtqalari rentgenografiyasi olindi.

Subkranial va transkranial darajadagi gemodinamikaning holatini baholash uchun biz boshning magistral tomirlarini dupleks skanerdan o'tkazdik. Qon tomir o'tkazuvchanligi, anomaliya (qo'shimcha maxsus tomir yo'lining mavjudligi)va venoz qon oqimi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar individual kompyuterda qayta ishlandi va Styudent standartlari statistik mezonlar sifatida ishlatildi.

Tekshiruv natijalari. Bolalarni tekshirish bosh va bo'yinning tuzilish xususiyatlarini aniqlashdan boshlandi. Normativga ko'ra bir yoshgacha bolalarning boshining hajmi 45-46 sm dan oshmasligi kerak. Asosiy guruh bolalarining bosh o'sishi me'yorga nisbatan o'rtacha 47% ga oshganligi bilan ajralib turardi. 4 ta bolada choklarni ajralishi, 7 bolada liqildoqning pulsatsiyasi aniqlandi. 10 ta holatda, bosh terisida qon tomir rasmining kuchayishi (ba'zan doimiy emas) kuzatilgan, bu esa venoz disfunktsiyani tasdiqlaydi. Psixomotor rivojlanish Shurba-Mastyukova shkalasi yordamida baholandi. Psixomotor rivojlanishning kechikishi asosiy guruhda 18 ta holatda 23 ballga, qolgan bolalarda motor-harakat tizimida ham sog'lom guruhga qaraganda 20-21 ballga sezilarli o'zgarishlar ro'y bergan.


Asosiy guruh bolalaridagi rentgenografiyada bo'yin umurtqalarining siljishi 52%, 12 bolada bel-dumg'aza sohasida S1-S2 darajasida kompressiya aniqlangan, 3 bolada S3 ga nisbatan S2 siljiganligi qayd etilgan.



Rasm 1. Bemor A., 4 oylik.



Rasm. 2. Bemor V., 4,5 oylik.



Rasm. 3. Bemor B., 6 oylik.



Rasm. 4. Bemor G., 6 oylik.

Neyrosonografiya ma'lumotlari quyidagicha bo'lib chiqdi (1, 2, 3, 4 -rasm). Shunday qilib, asosiy guruhning deyarli barcha bolalarda yon qorinchalarning kengayishini ko'rsatdi va yon qorincha tana indeksi mos ravishda normadan yuqori (25dan baland) ekanligi aniqlandi. Kuzatishlarning yarmida uchinchi qorinchaning 2-3 mm ga kengayishi, asosiy guruh bolalarining 70%ida yarimsharlararo bo'shliqning oshganligini ko'rsatdi. Tekshiruvda venoz qon oqimi ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bo'yinturuq venasida venoz disgemiya borligi, asosiy guruh bolalarining ko'pchiligida (83%) me'yorga nisbatan ancha ko'pligi qayd etildi. Vertebral venalar bo'yicha farq qiladigan venoz disgemiya, asosiy guruhdagi 33% hollarda qayd etiladi, ulardan faqat 5 ta holatda jiddiy buzilishlar kuzatildi. Arterial qon oqimini vertebro bazilar havzasi darajasida o'rganish umurtqa arteriyalarida chiziqli qon oqimi tezligining yengil assimetriyasini aniqlandi. Ikkinchi, sog'lom guruhning barcha bolalari hech qanday patologik holatlar topilmagan, ota -onasidan shikoyatlar bo'lmagan, bolalar yosh me'yorlariga mos kelishgan (1 -jadval).

1 -jadval

Cho'zilgan tug'ruq fonida rivojlangan gipertenzion-gidrosefal sindromli bolalarda gemodinamik ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar		Asosiy guruh (n=35)	Nazorat guruhi (n=20)
A	3M	39,50	41,00
	Vm		
(V4)	ПА	28,00	35,00
	PI	0,66	0,64
(V2)	ПА	35,50	42,00
	RI	0,61	0,58

Ishning keyingi bosqichi terapevtik yordam ko'rsatish. Shu munosabat bilan, asosiy guruh bolalari (35 bola) ikkita kichik guruhga bo'lingan, 1 (18 bola) nootrop, digidrotatsiya, vitaminoterapiya, fizioterapiya (dorilarning dozasi va tanlovi individual asosda olib borilgan holda) lar orqali an'anaviy usulda davo o'tkazilgan. 2-kichik guruhda (17 bola) nootrop (xususan, korteksin), L-lizin escinati (o'rtacha 1 yoshli bolalar, 2 ml dan 50 ml fiziologik eritmada eritilib 5 inyeksiya kuniga 1maxal vena ichiga yuborildi), fizioterapiya o'rnida boshni to'g'ri yotqizish uchun maxsus yostiq, Shans yoqachasi, bel-dumg'aza sohasini mustahkamlash uchun qattiq yotoqdan foydalanildi. Bir oydan so'ng, dastlabki kuzatuv ko'rsatkichlari bo'yicha takroriy diagnostika tekshiruvi o'tkazildi. Ota-onalarning so'zlariga ko'ra, birinchi hafta mobaynida bolalar bezovtalikni, sababsiz yig'lashni, ayniqsa gorizont holatda, ovqatdan keyin qusish to'xtagan, uyqu va uyg'oqlik davri normallashtirildi. Nevrologik tekshiruv paytida bolalar boshlarini yaxshiroq ushlab turadilar (boshini orqaga tashlash kuzatilmadi), qo'llarning kuchi oshdi, bolalar oyoqlariga qadam qo'yadilar (to'liq oyoq). Bu ijobiy belgilar 2 -kichik guruhda

barcha bolalarda 100%, 1 kichik guruhda esa 66% da kuzatilgan. Neyrosonografiya ma'lumotlariga ko'ra, liquor saqlovchi tizimlarning tuzilishi 2-kichik guruhda 90% ga, 1-kichik guruhda esa atigi 31%ga normallashtirilgan. Har ikkala kichik guruhda ham ahvolning yomonlashuvi kuzatilmadi, jarayonning barqarorlashuvi asosiy guruhning 42% holatlarida qayd etildi. Dinamikada dupleks skanerlash 2 -kichik guruhda venoz qon oqimi jarayonining aksariyat hollarda 81%, normallashtirishini ko'rsatdi, arterial qon oqimining ko'rsatkichlarini yuqori ko'rsatkichlarda yaxshilanganligi aniqlandi. 1 -kichik guruhda, ijobiy klinik o'zgarishlarga qaramay, venoz gemodinamik ko'rsatkichlar faqat 33% da ijobiy tomonga o'zgargan. Ammo gemodinamik buzilishlar faqat 1 -kichik guruhning 2 bolasida qayd etilgan. Boshning o'sish tezligi me'yordan oshib ketdi, choklarning ajralishi kamaymadi, bu esa kuzatish va davolashni neyroxirurgiya bo'limida olib borishga to'g'ri keldi.

Shunday qilib, olingan natijalar bizga asab tizimining perinatal shikastlanishi fonida gipertenzion-gidrocefal sindromli bolalarni tekshirishda nafaqat klinik va nevrologik tekshiruvlar, balki neyrofiziologik (NSG), ultratovush ma'lumotlari yetarli bo'lmaganda yoki jarayonni yomonlashi kuzatilganda neyrovizualizatsion (KT / MRT) diagnostik tekshiruvga muhtoj degan xulosaga kelishimizga imkon berdi. Dupleksli skanerlash gipertenzion-gidrocefal sindrom giperdiagnostikasi vaqtida magistral tomirlar gemodinamikasini o'rganish, yoki, tomirlar anomaliyasiga shubha bo'lganda yoki uni istisno qilish uchun eng informativ tekshirish usulidir.

XULOSA

1. Tug'ilgandan keyingi birinchi oylardagi bolalarda likorodinamik buzilishlar odatda og'ir, cho'zilgan tug'ruq, bo'yin va dumg'aza umurtqalarining siljishi (tug'ruq davrida boshning noto'g'ri aylantirilishi) bilan bog'liq. Bunday bolalarga erta tashxis qo'yish va gipertenzion-gidrocefal sindromning sabablarini aniqlash kerak.
2. Tekshirish algoritmlarga muvofiq standart tekshirish usullari (klinik va nevrologik tekshiruv), neyrosonografiya, magistral tomirlarni dupleks skanerlash, bel-dumg'aza va bo'yin umurtqalarining rentgenografiyasi va kerak bo'lganda bosh va bo'yinning neyrovizualizatsiya(KT/MRT)si tavsiya etiladi.
3. Birinchi navbatda, venoz disfunktsiyani yaxshilash uchun, davolanishni optimallashtirish uchun, L-lizin escinat preparatini qo'llash (yoshga qarab), bo'yinni Shans yoqasi bilan mahkamlash va bel-dumg'aza sohasiga to'liq dam berish kerak
4. Kuzatuvda bosh o'lchamlari kattalashib borsa, choklar ajralishi davom etsa, jarayon barqarorlashmasa, gipertenzion-gidrocefal sindrom progressivlanib borsa neyroxirurgik davoga yo'naltirish kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Игамова С.С., Джурабекова А.Т., Шомуродова Д.С., Ниезов Ш.Т. Основы эффективности оздоровительной методологии детей, перенесших перинатальные поражения ЦНС // ЖУРНАЛ «Вопросы науки и образования», 2019, с. 123-134
2. Клинический пример №5. Диагноз: Сирингобульбия, сирингомиелия шейного и грудного отдела позвоночника, внутренняя окклюзионная гидроцефалия, гидроцефально-гипертензионный синдром, субкомпенсация // https://neuronsk.ru/for-doctor/clinical-examples/?ELEMENT_ID=1523
3. Игнатенкова Т.В., Авдеева Т.Г., Юдельсон Я.Б. Особенности реабилитации детей при перинатальных поражениях ЦНС с гипертензионно-гидроцефальным синдромом // Ж. Поликлиника, № 1 2006 (стр. 44)
4. Егорова И.А. Гипертензионно-гидроцефальный синдром у детей первых трех месяцев жизни (диагностика и реабилитация). // Дис...к.м.н., Санкт-Петербург – 2003, 139 с.
5. Громова Л.Л. Гипертензионно-гидроцефальный синдром и синдром доброкачественной внутричерепной гипертензии у детей раннего возраста // Педиатрический Вестник Южного Урала, № 2, 2013 с. 65-67

QANDLI DIABETLI BEMORLARDA YURAK QON TOMIR TIZIMI KASALLIKLARINING RIVOJLANISHI

Sharapatdinova Shaxnoza Baxadir qizi

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti, Davolash ishi fakulteti,

Ilmiy rahbar: *Ibraimova N.M.*

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti, Nukus shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Annotatsiya. Qandli diabet – bu organizmda uglevod almashinuvi buzilishi bilan kechadigan surunkali kasallik. Bu kasallikda qonda glyukoza miqdori normadan ortib ketadi. Qandli diabet hozirgi kunda dunyo bo'yicha keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lib, u yurak-qon tomir, buyrak, ko'z va nerv sistemasi kabi muhim organlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kasallikning keng tarqalishi uni tibbiyotning muhim muammolaridan biriga aylantirgan. JSSTning ma'lumotlariga ko'ra 2023-yili yer yuzida 540 milliondan ortiq odam qandli diabet kasalligiga chalingan. O'zbekistonda bo'lsa bu kasallikka chalinganlar 230ming odamni tashkil etadi.

Kalit so'zlar: qandli diabet, giperglikemiya, immunitet, yurak-qon tomir kasalliklari, infeksiya, diabetik asoratlari.

Annotation. Diabetes is a chronic disease characterized by impaired carbohydrate metabolism in the body. In this disease, the amount of glucose in the blood exceeds the norm. Diabetes is currently one of the most common diseases in the world, which negatively affects important organs such as the cardiovascular, kidney, eye and nervous systems. The widespread nature of the disease has made it one of the most important problems in medicine. According to WHO, in 2023, more than 540 million people on earth were diagnosed with diabetes. In Uzbekistan, the number of people suffering from this disease is 230 thousand.

Keywords: diabetes, hyperglycemia, immunity, cardiovascular diseases, infection, diabetic complications.

Kirish. Qandli diabetda qonda glyukoza miqdorining doimiy ravishda yuqori bo'lishi organizmning ko'plab tizimlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, immun tizim faoliyatini pasaytiradi. Immunitetning pasayishi natijasida organizm infeksiyalarga qarshi

kurashishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli diabet bilan kasallangan bemorlarda nafas, siydik yo'llari infeksiyasi, teri yallig'lanishlari va zamburug'li kasalliklar tez-tez uchraydi.


Qandli diabet yurak-qon tomir tizimiga jiddiy zarar yetkazadi. Giperglikemiya qon tomir devorini shikastlaydi, bu esa ateroskleroz rivojlanishiga olib keladi. Natijada diabet bilan kasallangan bemorlarda yurak ishemik kasalligi, miokard infarkti, arterial gipertoniya va insult kabi kasalliklar rivojlanish xavfi sezilarli darajada ortadi.

Muammoning dolzarbligi. Qandli diabet kasalligida qon tomir kasalliklari uchrash darajasi bo'yicha muhim o'rin tutib, a'zolarning infarkti, qon tomirlarning yetishmovchiligi bilan namoyon bo'ladi. Angiopatiyaning og'irlik darajasi giperglikemiyaning darajasi va davomiyligiga bog'liq. O'z vaqtida va to'g'ri tanlangan insulinoterapiya, glyukozaning qondagi miqdorini me'yor ko'rsatkichlariga yaqin miqdorda ushlab turish qon tomirlarda asoratlarning rivojlanishini sekinlashtiradi va to'xtadi.

Tadqiqot maqsadi. Qandli diabetga chalingan bemorlarda yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanishini o'rganish.


Tadqiqot materiallari va metodlari: Kegeyli tuman tibbiyot birlashmasi terapiya bo'limidagi bemorlarda tadqiqot o'tkazildi. Fevral oyida jami 94 bemor statsionar sharoitda davolashga yotqizilgan. Ulardan 10ta bemor qandli diabetning 2-tipi diagnozi bilan emlangan. Shu 10 bemorning 8tasi ayollar, 2tasi erkaklar hisoblanadi. Bemorlarning 6 nafari 50yoshdan katta odamlar bo'lsa qolgan 4tasini 50yoshdan kichiklar tashkil qiladi. Qandli diabet kasalligi bilan davolanganlarning 7tasida yurak-qon tomir kasalliklari bo'yicha tizimga olingan. Bundan tashqari ularda nerv tolalari va bog'im to'qimalarida patologik o'zgarishlar ham rivojlangan.

Natijalar va muhokama: Kegeyli TTB terapiya bo'limida o'tkazilgan tadqiqot



natijalari quy

dagi diagrammada ko'rsatilgan.



Kegeyli TTB terapiya bo'limida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, fevral oyida statsionar sharoitda davolangan jami 94 bemor orasidan 10 nafarida Qandli diabet 2-tipi aniqlangan. Bu ko'rsatkich umumiy bemorlar sonining taxminan 11 % ini tashkil etadi.

Tadqiqotda aniqlanishicha, qandli diabet bilan kasallangan bemorlar orasida ayollar ulushi ko'proq bo'lib, ular 8 nafarni (80 %) tashkil etgan. Erkaklar esa 2 nafar (20 %) ni tashkil qilgan. Bu holat ushbu kasallikning ayollar orasida ko'proq uchrashi mumkinligini ko'rsatadi.

Bemorlarning yosh tarkibi tahlil qilinganda, ularning 60 % i 50 yoshdan katta, qolgan 40 % i esa 50 yoshdan kichik bemorlardan iborat ekanligi aniqlangan. Bu natijalar qandli diabet kasalligi ko'proq katta yoshdagi insonlarda uchrashini ko'rsatadi va ortishi bilan kasallik rivojlanish xavfi oshishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko'ra qandli diabet bilan davolanayotgan bemorlarning 7 nafarida (70 %) birga kechuvchi yurak-qon tomir kasalliklari ham qayd etilgan.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqot natijalari qandli diabet 2-tipi ko'pincha katta yoshdagi bemorlarda, ayniqsa ayollarda ko'proq uchrashi, shuningdek kasallik ko'p hollarda yurak-qon tomir tizimi bilan bog'liq asoratlar bilan birga kechishini ko'rsatdi. Bu esa qandli diabet bilan og'rigan bemorlarni davolashda kompleks diagnostika va muntazam nazorat muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa: Qandli diabet II tipi fonida ichki a'zo kasalliklaridan asosan yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bemorlarda turli asoratlarni tez rivojlanishiga va qandli diabetni og'ir kechishiga olib keladi. Qandli diabet va yurak qon tomir tizimi kasalliklari komorbid

- Qandli diabetga chalingan ayol bemorlar
- Qandli diabetga chalingan erkak bemorlar

yosh

kechganda kompleks davolashda antidiabetik dori vositalar tavsiya qilinadi. Diabet bilan kasallangan bemorlarni erta aniqlash, muntazam tibbiy nazorat qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda yurak-qon tomir tizimi asoratlarning oldini olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu esa kasallikning og'ir asoratlarini kamaytirish va bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Список литературы

1. Ошепкова Е.В., Лазарева Н.В., Чазова И.Е. Особенности клиники и лечения больных артериальной гипертензией с ожирением (по данным Национального регистра артериальной гипертензии) Терапевтический архив. 2019; №8. Стр. 8-14.
2. Галяви Р.А., Михопарова О.Ю., Фролова Э.Б. Артериальная гипертензия и сахарный диабет. Вестник современной клинической медицины 2014; № 7, стр.78-81.
3. Шестакова В. Оправдано ли изменение целевых значений артериального давления при сахарном диабете? Дискуссионная статья 2017, 28(4), стр.340-345.
4. Парфенов В.А., Остроумова Т.М., Остроумова О.Д., Павлеева Е.Е. Особенности клинической картины у пациентов среднего возраста с эссенциальной артериальной гипертензией. Терапевтический архив 2018; №9, стр.15-24.
5. Остроумова О.Д., Кочетков А.И. Артериальная гипертония на рабочем месте как вариант стресс-индуцированной артериальной гипертонии. Терапевтический архив 2018; №9, стр.123-130.
6. Ларина В.Н., Барт Б.Я., Миронова Т.Н., Литвин А.Ю., Кульбачинская О.М. Клинические наблюдения пациентки с артериальной гипертензией и синдромом обструктивного апноэ сна. Терапевтический архив 2018; №9, стр.110-113
7. Чесникова А.И., Батюшин М.М., Терентьев В.П. Артериальная гипертензия и коморбидность: современное состояние проблемы. Редакционная статья 2016; № 22(5), стр.432-438.
8. Чесникова А.И., Сафроненко В.А., Скаржинская Н.С., Сафроненко А.В., Коломацкая. О.Е. Особенности

ПСИХОСОМАТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СИНДРОМА КАРПАЛЬНОГО КАНАЛА У ПАЦИЕНТОВ СРЕДНЕГО ВОЗРАСТА: СОВРЕМЕННЫЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ И КЛИНИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Хасанов Алишер Юрьевич <https://orcid.org/0009-0002-1041-5261>

Мавлянова Зилола Фархадовна <https://orcid.org/00165-2134-7222-1978>

Джурабекова Азиза Тахировна <https://orcid.org/0000-0001-6397-9576>

Самаркандский государственный медицинский университет, Узбекистан

Аннотация. В обзорной статье рассматриваются современные представления о психосоматических аспектах синдрома карпального канала (СКК) у пациентов среднего возраста. Анализируются основные механизмы формирования заболевания, включая периферическую компрессию срединного нерва, нарушения микроциркуляции и развитие демиелинизации. Особое внимание уделяется роли центральной сенситизации в формировании хронического болевого синдрома, что объясняет несоответствие между выраженностью клинических симптомов и степенью структурного поражения нерва. Рассматривается влияние психологических факторов - тревоги, депрессии, катастрофизации боли и нарушений сна - на интенсивность болевого синдрома и качество жизни пациентов. Подчеркивается значение биопсихосоциальной модели в понимании патогенеза заболевания. Обсуждаются современные мультидисциплинарные подходы к лечению, включающие медикаментозную терапию, ортезирование, физиотерапию и психокоррекционные методы. Комплексный подход позволяет повысить

эффективность лечения и улучшить функциональные исходы у пациентов со СКК.

Ключевые слова: синдром карпального канала; психосоматические факторы; центральная сенситизация; хроническая боль; тревожно-депрессивные расстройства.

Abstract. The review article examines contemporary perspectives on the psychosomatic aspects of carpal tunnel syndrome (CTS) in middle-aged patients. The principal mechanisms involved in the development of the disorder are analyzed, including peripheral compression of the median nerve, disturbances of microcirculation, and the progression of demyelination. Particular attention is given to the role of central sensitization in the formation of chronic pain syndrome, which explains the discrepancy between the severity of clinical symptoms and the degree of structural nerve damage. The influence of psychological factors-anxiety, depression, pain catastrophizing, and sleep disturbances-on pain intensity and patients' quality of life is considered. The significance of the biopsychosocial model in understanding the pathogenesis of the disease is emphasized. Contemporary multidisciplinary approaches to treatment are discussed, including pharmacological therapy, orthotic management, physiotherapy, and psychocorrective methods. A comprehensive approach increases treatment effectiveness and improves functional outcomes in patients with CTS.

Keywords: carpal tunnel syndrome; psychosomatic factors; central sensitization; chronic pain; anxiety-depressive disorders.

Синдром карпального канала (СКК) является наиболее распространённой компрессионно-ишемической невропатией периферической нервной системы и составляет значительную долю всех туннельных синдромов верхней конечности. По данным эпидемиологических исследований, распространённость заболевания в общей популяции составляет 3–6 %, однако в отдельных профессиональных и возрастных группах этот показатель значительно выше [1,2]. Наиболее часто СКК выявляется у лиц среднего возраста, что связано с воздействием профессиональных факторов, возрастных изменений соединительной ткани и метаболических нарушений [3]. Традиционно синдром рассматривается как локальная компрессионная нейропатия, возникающая вследствие сдавления срединного нерва в карпальном канале. Однако современные исследования показывают, что выраженность клинических проявлений не всегда соответствует степени структурного поражения нерва, что свидетельствует о вовлечении центральных механизмов модуляции боли [4].

Классическая патогенетическая модель СКК основана на механической компрессии срединного нерва, возникающей при уменьшении объёма карпального канала или увеличении объёма его содержимого. Карпальный канал представляет собой остеофиброзное пространство, образованное костями запястья и поперечной карпальной связкой, в котором проходят сухожилия сгибателей пальцев и срединный нерв. Увеличение объёма мягких тканей вследствие воспаления,

теносиновита или отёка приводит к повышению внутриканального давления и компрессии нервных структур [5]. Это вызывает нарушение микроциркуляции, ишемию нервных волокон, демиелинизацию и нарушение аксонального транспорта. В дальнейшем развиваются структурные изменения нервной ткани, сопровождающиеся снижением скорости нервной проводимости и появлением характерных симптомов - парестезий, боли, снижения чувствительности и слабости кисти [6].

Несмотря на хорошо изученный локальный механизм компрессии, клиническая картина заболевания часто отличается вариабельностью. В ряде случаев интенсивность болевого синдрома превышает выраженность объективных нейрофизиологических изменений. Такая диссоциация указывает на участие центральных механизмов обработки боли. Нейрофизиологические исследования показывают, что у пациентов с СКК могут формироваться признаки центральной сенситизации - состояния повышенной возбудимости нейронов центральной нервной системы, сопровождающегося усиленным восприятием болевых стимулов [7]. Это проявляется генерализованной гипералгезией, расширением зоны боли за пределы иннервации срединного нерва и снижением болевых порогов даже в отдалённых анатомических областях [8].

Развитие центральной сенситизации связано с длительной периферической ноцицептивной стимуляцией, возникающей при хронической компрессии нерва. Постоянная афферентная импульсация приводит к функциональной перестройке нейрональных сетей спинного мозга и высших отделов центральной нервной системы. В результате формируются изменения в соматосенсорной коре головного мозга, усиливающие восприятие боли и способствующие появлению симптомов, не полностью объясняемых локальными структурными изменениями [9].

В последние годы всё большее внимание уделяется психосоматическим аспектам синдрома карпального канала. Формирование хронического болевого синдрома рассматривается в рамках биопсихосоциальной модели, учитывающей взаимодействие биологических, психологических и социальных факторов [10]. Биологические факторы включают компрессию нерва, воспаление и ишемию тканей. Психологические факторы представлены тревожностью, депрессией, катастрофизацией боли и склонностью к соматизации. Социальные факторы связаны с профессиональной нагрузкой, хроническим стрессом и условиями труда.

Исследования показывают, что у пациентов с СКК значительно чаще выявляются симптомы тревоги и депрессии, которые усиливают субъективное восприятие боли и снижают болевой порог. В клинических исследованиях установлена тесная связь между выраженностью симптомов заболевания, уровнем тревожно-депрессивных проявлений и снижением качества жизни пациентов [9, 10]. При этом психологические факторы нередко оказываются более тесно связанными с субъективной тяжестью симптомов, чем объективные

электрофизиологические показатели.

Одним из важных психосоматических механизмов хронической боли является катастрофизация - когнитивная установка, при которой пациент воспринимает болевые ощущения как признак серьёзного и необратимого повреждения. Такое восприятие сопровождается усилением тревоги, эмоционального напряжения и снижением эффективности лечения [10]. У пациентов с выраженной катастрофизацией отмечаются более высокая интенсивность боли, ухудшение функции кисти и меньшая удовлетворённость результатами терапии.

Дополнительным фактором, влияющим на клиническое течение СКК, являются нарушения сна. Ночные парестезии и боль приводят к фрагментации сна и снижению его качества. Хроническое недосыпание, в свою очередь, усиливает болевую чувствительность и способствует развитию центральной сенситизации, формируя порочный круг, осложняющий течение заболевания [8, 9, 10].

Социально-экономические факторы также могут влиять на выраженность симптомов и психоэмоциональное состояние пациентов. Уровень образования, характер занятости и физическая активность оказывают влияние на интенсивность болевого синдрома и качество жизни. Более высокая физическая активность ассоциируется со снижением интенсивности боли и уменьшением депрессивных проявлений, что подтверждает необходимость комплексного подхода к лечению данной патологии [7, 10].

Учитывая многофакторную природу синдрома карпального канала, современные подходы к лечению всё чаще основываются на мультидисциплинарной модели. Помимо традиционных методов - ортезирования, физиотерапии, медикаментозной терапии и хирургической декомпрессии - важное значение имеют психообразование, коррекция тревожно-депрессивных состояний и когнитивно-поведенческая терапия. Психообразование помогает пациенту понять механизмы формирования боли и снижает уровень тревожности.

Когнитивно-поведенческая терапия позволяет изменить неадаптивные когнитивные установки и снизить катастрофизацию боли. Дополнительно используются методы релаксации, нормализация режима сна и программы постепенного увеличения физической активности. Комплексное воздействие на периферические и центральные механизмы боли способствует повышению эффективности лечения.

Таким образом, синдром карпального канала представляет собой многофакторное заболевание, в патогенезе которого важную роль играют психосоматические механизмы. Хроническая боль формируется в результате взаимодействия периферических нейропатических процессов, центральной сенситизации и психологических факторов. Игнорирование психоэмоционального компонента может приводить к снижению эффективности терапии. В связи с этим

современная стратегия ведения пациентов с СКК должна основываться на биопсихосоциальном подходе, включающем комплексную оценку неврологических, психологических и социальных факторов заболевания. Такой подход позволяет повысить эффективность лечения и улучшить качество жизни пациентов.

Литература

1. Atroshi, I., Gummesson, C., Johnsson, R., Ornstein, E., Ranstam, J., & Rosén, I. (1999). Prevalence of carpal tunnel syndrome in a general population. *JAMA*, 282(2), 153–158. <https://doi.org/10.1001/jama.282.2.153>.
2. Padua, L., Coraci, D., Erra, C., Pazzaglia, C., Paolasso, I., Loreti, C., Caliandro, P., & Hobson-Webb, L. D. (2016). Carpal tunnel syndrome: clinical features, diagnosis, and management. *The Lancet. Neurology*, 15(12), 1273–1284. [https://doi.org/10.1016/S1474-4422\(16\)30231-9](https://doi.org/10.1016/S1474-4422(16)30231-9).
3. Dale, A. M., Harris-Adamson, C., Rempel, D., Gerr, F., Hegmann, K., Silverstein, B., Burt, S., Garg, A., Kapellusch, J., Merlino, L., Thiese, M. S., Eisen, E. A., & Evanoff, B. (2013). Prevalence and incidence of carpal tunnel syndrome in US working populations: pooled analysis of six prospective studies. *Scandinavian journal of work, environment & health*, 39(5), 495–505. <https://doi.org/10.5271/sjweh.3351>.
4. Fernández-de-Las-Peñas, C., Arias-Burúa, J. L., Ortega-Santiago, R., & De-la-Llave-Rincón, A. I. (2020). Understanding central sensitization for advances in management of carpal tunnel syndrome. *F1000Research*, 9, F1000 Faculty Rev-605. <https://doi.org/10.12688/f1000research.22570.1>.
5. Ibrahim, I., Khan, W. S., Goddard, N., & Smitham, P. (2012). Carpal tunnel syndrome: a review of the recent literature. *The open orthopaedics journal*, 6, 69–76. <https://doi.org/10.2174/1874325001206010069>.
6. Bland J. D. (2005). Carpal tunnel syndrome. *Current opinion in neurology*, 18(5), 581–585. <https://doi.org/10.1097/01.wco.0000173142.58068.5a>.
7. Feng, B., Gong, C., You, L., Lin, Y., Wang, Y., Ip, W. Y., & Wang, Y. (2023). Central Sensitization in Patients with Chronic Pain Secondary to Carpal Tunnel Syndrome and Determinants. *Journal of pain research*, 16, 4353–4366. <https://doi.org/10.2147/JPR.S441786>.
8. Matesanz-García, L., Cuenca-Martínez, F., Simón, A. I., Cecilia, D., Goicoechea-García, C., Fernández-Carnero, J., & Schmid, A. B. (2022). Signs Indicative of Central Sensitization Are Present but Not Associated with the Central Sensitization Inventory in Patients with Focal Nerve Injury. *Journal of clinical medicine*, 11(4), 1075. <https://doi.org/10.3390/jcm11041075>.
9. Fernández-de-las-Peñas, C., de-la-Llave-Rincón, A.I., Cescon, C., Barbero, M., Arias-Burúa, J.L. and Falla, D. (2019), Influence of Clinical, Psychological, and Psychophysical Variables on Long-term Treatment Outcomes in Carpal Tunnel Syndrome: Evidence From a Randomized Clinical Trial. *Pain Pract*, 19: 644-655. <https://doi.org/10.1111/papr.12788>.
10. Mansfield, M., Thacker, M., & Sandford, F. (2018). Psychosocial Risk Factors and the Association With Carpal Tunnel Syndrome: A Systematic Review. *Hand (New York, N.Y.)*, 13(5), 501–508. <https://doi.org/10.1177/1558944717736398>.

MODERN METHODS IN TEACHING ENGLISH: THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL APPROACHES

Komilov Umidjon

Zarmed University, Faculty of English Philology

Abstract. This article explores modern approaches to teaching English, focusing on the theoretical foundations and practical applications of Communicative Language Teaching (CLT), Task-based Learning (TBL), Project-based Learning (PBL), and the

integration of digital technologies. Traditional methods such as grammar-translation and audio-lingual approaches are critically analyzed for their limitations in developing communicative competence. In contrast, contemporary methodologies emphasize learner autonomy, motivation, and the integration of four key language skills: speaking, listening, reading, and writing. The findings highlight that effective language teaching in the 21st century requires a balance between methodological innovations and technological tools to enhance learner engagement and outcomes. Practical implications for teachers are also provided.

Keywords: English Language Teaching (ELT), Communicative Approach, Task-based Learning, Project-based Learning, Technology in Education, Motivation

Introduction. In the 21st century, English has become a global means of communication and is widely used across the world. In Uzbekistan, the growing demand for English has made it one of the priorities in the education system. The issue of teaching English effectively is considered one of the most urgent problems in pedagogy and methodology today (Richards & Rodgers, 2014). This article analyzes modern methods applied in English teaching from a theoretical perspective and highlights their practical effectiveness.

Main Body

1. Characteristics of Traditional Methods

The grammar-translation and audio-lingual methods, which have been used for many years in teaching English, contributed to improving learners' grammatical knowledge, but they did not achieve sufficient results in developing communicative competence. These methods primarily focused on theoretical knowledge and paid little attention to the practical use of the language (Harmer, 2007).

2. Priority of the Communicative Approach

The Communicative Language Teaching (CLT) approach, which has become widespread in recent years, aims not only at theoretical learning but also at applying the language in real-life situations (Littlewood, 2013). This approach plays a vital role in developing learners' communicative competence, helping them express opinions, interact, and make independent decisions (Richards & Rodgers, 2014).

3. Innovative Methods and Technologies

One of the modern methods is Task-based Learning (TBL), which engages learners actively in the learning process through practical tasks (Nunan, 2004). Project-based Learning (PBL) encourages students to explore, collaborate, and develop creativity for deeper language learning (Harmer, 2007). Moreover, the use of information and communication technologies—online learning platforms, multimedia tools, and AI-based applications—significantly increases teaching effectiveness (Brown, 2000).

4. Integrated Development of Skills

Language teaching should focus on the integrated development of four main skills:

speaking, listening, reading, and writing. For instance, debates, role plays, and interviews are effective in developing oral communication skills, while authentic materials are highly useful for improving writing competence (Littlewood, 2013).

5. Teacher's Role and the Factor of Motivation

In modern methodology, the teacher is not only a provider of knowledge but also a guide and facilitator who supports learners' independent learning. Motivation is considered a key factor in successful language learning. Learner-centered education, differentiated approaches, and motivational strategies encourage students to actively participate in the learning process (Brown, 2000).

Conclusion. In conclusion, the use of modern methods in teaching English not only enhances learners' theoretical knowledge but also develops their practical communicative competence. The application of CLT, TBL, and PBL methods engages learners in active participation in communication, while the integration of technology increases the overall effectiveness of education. This article highlights that English teaching in the modern era must integrate methodological innovation with digital tools to ensure sustainable learning outcomes. Teachers are encouraged to adapt flexible, learner-centered approaches and continually update their teaching practices in line with technological advancements.

References

1. Brown, H. D. (2000). Principles of language learning and teaching (4th ed.). Pearson Education.
2. Harmer, J. (2007). The practice of English language teaching (4th ed.). Pearson Longman.
3. Littlewood, W. (2013). Developing communicative competence: A framework for language teaching. Routledge.
4. Nunan, D. (2004). Task-based language teaching. Cambridge University Press.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.

FERTIL YOSHDAGI AYOLLARDA MIS VA RUX TANQISLIGINING KLINIK-LABORATOR JIHATLARI

Zokirov Vohid Zoyit o'g'li

Zarmed universiteti tibbiyot va bioinjeneriya instituti Buxoro kampusi Klinik oldi fanlar kafedrası mudiri PhD.

Annotatsiya. Ushbu maqolada fertil yoshdagi ayollar (18-45 yosh) orasida rux va mis mikroelementlari tanqisligining klinik-laborator jihatlari, tarqalish darajasi hamda xavf omillari o'rganilgan. Tadqiqot 2017-2020 yillarda Buxoro viloyati shahar va qishloq

hududlarida yashovchi 349 ta fertil yoshdagi ayolda o'tkazildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tekshirilgan ayollarda mikroelementlar tanqisligi asosan polidifitsit ko'rinishida (temir+rux+mis tanqisligi — 55,8%) kuzatiladi. Rux va mis miqdorini aniqlash, shuningdek seruloplazmin, ferritin, transferrin va gepsidin ko'rsatkichlarini baholash erta diagnostika uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: fertil yoshdagi ayollar, rux tanqisligi, mis tanqisligi, polidifitsit, mikroelementoz, gemoglobin, seruloplazmin, gepsidin.

Kirish. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 2 milliarddan ko'prog'i mikronutrientlar tanqisligidan aziyat chekmoqda (WHO, 2016). O'zbekistonda ham aholining turli ijtimoiy guruhlari, xususan fertil yoshdagi ayollar orasida gipomikroelementozlar tarqalishi klinik jihatdan muhim muammo bo'lib qolmoqda. Hemopoetik mikroelementlarga temir bilan bir qatorda mis va rux kiradi. Ular gemoglobin sintezida sinergist element sifatida bevosita ishtirok etadi va ularning tanqisligi gemoglobin sintezini buzadi. Shunday bo'lsa-da, ko'pgina klinik tadqiqotlarda faqat temir tanqisligi — monodefitsit nuqtai nazaridan o'rganilgan; mis va rux holati baholanmagan yoki temir preparatlari bilan davoli davolash amalga oshirilgan (Baxramov S.M. va boshq., 2016; Rasulov S.K. va boshq., 2012). Buxoro viloyatida biogeokimyoviy sharoitning o'ziga xosligi va shahar-qishloq farqlari, oziq-ovqat tarkibining o'ziga xosligi hisobga olinsa, bu mintaqada fertil yoshdagi ayollarda mis-rux polidifitsit holatini o'rganish alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqot amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi: Buxoro viloyatida yashovchi fertil yoshdagi ayollarda mis va rux mikroelementlari tanqisligining tarqalish darajasini, klinik-laborator ko'rinishlarini o'rganish hamda ularni erta aniqlash va prognoz qilish tamoyillarini ishlab chiqish.

